

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.08/2025.27.12.V.11.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI**

RAXIMOV ODILBEK RAXMATULLAEVICH

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SIGIRLARDA
ALIMENTAR BEPUSHTLIKLARNING SABABLARI, DIAGNOSTIKASI
VA PROFILAKTIKASI**

**16.00.02-Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi.
Veterinar akusherligi va hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

Raximov Odilbek Raxmatullaevich

Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida sigirlarda alimentar bepushtliklarning sabablari, diagnostikasi va profilaktikasi.....	3
---	---

Рахимов Одилбек Рахматуллаевич

Причины, диагностика и профилактика алиментарного бесплодия у коров в условиях Республики Каракалпакстан.....	21
--	----

Rakhimov Odilbek Rakhmatullayevich

Causes, diagnosis, and prevention of nutritional infertility in cows under the conditions of the Republic of Karakalpakstan	41
--	----

Эълон қилінган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works	45
-------------------------------	----

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.V.11.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI**

RAXIMOV ODILBEK RAXMATULLAEVICH

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SIGIRLARDA
ALIMENTAR BEPUSHTLIKLARNING SABABLARI, DIAGNOSTIKASI
VA PROFILAKTIKASI**

**16.00.02-Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi.
Veterinar akusherligi va hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/V115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ssuv.uz) hamda «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshburiev Baxtiyar Mamatqulovich
veterinariya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Dilmurodov Nasriddin Babakulovich
veterinariya fanlari doktori, professor

Tursagatov Jahongir Mamatovich
veterinariya fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.V.11.01. raqamli ilmiy kengashning 2026 yil «13» iyun soat «10:00» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy. Tel./faks: (99855) 707-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14365 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy. Tel./faks: (99855) 707-76-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «26» may kuni tarqatildi.
(2026 yil «26» maydagi №14 - raqamli reestr bayonnomasi)



X.B.Yunusov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, biol.f.d., professor

K.X.Urokov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, x.f.b.f.d.(PhD), dotsent

Q.N.Norboev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, vet.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik davlatlarida yuqori mahsuldor sigirlarda oqsillar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqadigan alimantar bepushtliklar reproduktiv tizim kasalliklarining o'rtacha "20-25 foizini tashkil etib, ularda reproduktiv organlar faoliyatining susayishi, hayvonlar ekspluatatsiya muddatining qisqarishiga sabab bo'lmoqda"¹. "Ratsionlarning to'yimli moddalar, biologik faol moddalar va mineral moddalar bo'yicha me'yorlashtirilmaganligi mahsuldor hayvonlarning genetik mahsuldorlik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishiga to'sqinlik qiladi, immunologik statusi va reproduktiv xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi"². Bu o'z navbatida hayvonlarda moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklarining rivojlanishi, mahsuldorlikning kamayishi, servis davrining uzayishi va alimantar bepushtliklarga sabab bo'ladi.

Dunyo miqyosida qoramollarda uchraydigan yuqumsiz xarakterdagi patologiyalar, jumladan alimantar bepushtliklar mahsuldor sigirlarda ko'p qayd etilib, ularning etiologiyasi, kechish xususiyatlari, patogenezini va diagnostikasini, davolash va oldini olish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligiga qaramasdan, mahsuldor sigirlarda kasallikni barvaqt diagnostikasi hamda guruhli profilaktika usullari yetarlicha ilmiy asoslanmagan. Sigirlarning alimantar bepushtliklari oqibatida mahsuldorlikning keskin pasayishi, sigirlardan xo'jalikda foydalanish muddatlarining qisqarishi, veterinariya xarajatlarining ortishi hisobiga xo'jaliklarga iqtisodiy zarar yetkaziladi. Shu boisdan, mahsuldor sigirlarda alimantar bepushtliklarning uchrash darajasi, etiologiyasi, patogenezini, kechish xususiyatlari va ertachi tashxis usullarini hamda samarali davolash-profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda, Qoraqalpog'iston respublikasiga xorijiy davlatlardan yuqori mahsuldor zotli qoramollar olib kelinib parvarishlanmoqda. Ushbu sigirlarni oziqlantirishda ularning fiziologik holati, yoshi, tana vazni, mahsuldorlik ko'rsatkichlari, sog'in davri va bo'g'ozlik davrlari hisobga olinmasligi natijasida, silos-konsentrat tipdagi takomillashtirilmagan va to'yimlili past ratsion asosida boqish ularda moddalar almashinuvi buzilishlari kasalliklarining turli xil shakllarda kechishi, reproduktiv tizim organlarining yaxshi rivojlanmasligi, tuxumdonlar funksiyalarining pasayishi, follikulalarda kista hosil bo'lishi, bachadon atoniyasi, subinvolyusiyasi hamda alimantar bepushtliklarga sabab bo'lishi kuzatilmoqda. Bu o'z navbatida mazkur patologiyalarga qarshi kurashishda oziqa ratsionlarini me'yorlashtirish va guruhli profilaktik tadbirlarini yanada takomillashtirishni talab etadi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning

¹ Яхяев И.М. Профилактика алиментарного бесплодия коров с использованием хелатсодержащих препаратов. Дисс. канд. вет. наук. Москва. 2020. 109 с.

² Рекомендации по стабилизации поголовья крупного рогатого скота и реализации его генетического потенциала в хозяйствах Российской Федерации / В. И. Фисинин и др. - М. Росинформагротех, 2006. - С. 17-18.

taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi³, 2019 yil 28 martdagi PF-5696-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2022 yil 8 fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ko'pchilik chet el olimlari, jumladan, П. Красочка, М. Якубовский, Н. Елеуталиева, И. Джакулов, А.П. Студенцов, А.М. Воронов, С.А. Власов, Ф. Сунагатулин, Н. Бауман, Д. Горшенина, Ю.М. Серебряков, В.П. Дегтярев, С.В. Федотов, И.М. Яхаев, G.A Andrews, J.E. Smith, J.M. Defrain, M.T Socha, D.J Tomlinson va S. James, Respublikamiz olimlaridan Q.N. Norboev, B. Bakirov, B.M. Eshburiev, O.U. Kuldoshev, S.B. Eshburiev, B.Ch. Soliev va M.A. Sulaymonovlar tomonidan mahsuldor sigirlarda dispanserlash asosida oqsil-uglevod-lipidlar, vitaminlar, makro- va mikroelementlar almashinuvi buzilishlari hamda ular oqibatidagi bepushtliklarning ertachi diagnostikasi, davolash va profilaktikasi usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Ilmiy manbalar ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi kungacha respublikamiz, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining noqulay geoeologik sharoitida qoramolchilik fermer xo'jaliklariga xorijiy davlatlardan olib kelingan mahsuldor sigirlarda alimantar bepushtliklarning etiopatogenezi, diagnostikasi, davolash va oldini olish chora-tadbirlari yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali bilan «Qoniratbay-mexri» MChJ o'rtasida tuzilgan «Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida sigirlarda alimantar bepushtliklarning sabablari, diagnostikasi va profilaktikasi» mavzusi bo'yicha xo'jalik shartnomasi (02.10.2025 yil № 15) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining noqulay geoeologik iqlim sharoitida yuqori mahsuldor sigirlarda alimantar bepushtliklarning uchrash darajasi, sabablari, rivojlanish mexanizmlari va ertachi diagnostikasini o'rganish hamda oldini olish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

Qoraqalpog'iston Respublikasi noqulay geoeologik sharoitida mahsuldor sigirlarda alimantar bepushtliklarning tarqalishi, iqtisodiy zarari va sabablarini aniqlash;

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi³ PF-60-sonli farmoni

sigirlarda alimantar bepushtliklarning kechishi, klinik belgilari, rivojlanish xususiyatlarini o'rganish va ertachi aniqlash usullarini ishlab chiqish;

sigirlarda jinsiy funksiyalarni stimullash va pushtdorligini oshirishda qo'llaniladigan preparatlarni tanlash va ularning samaradorligini aniqlash;

sigirlarda alimantar bepushtliklarni ertachi diagnostikasi, oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning obekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida chorvachilik fermer xo'jaliklarida saqlanayotgan sigirlar, ulardan olingan qonning morfologik, biokimyoviy ko'rsatkichlari, sigirlar ratsioni tarkibiga kiruvchi oziqa namunalari, Samniks EKO, kaliy yodid, rux sulfat, tetramag, fergalin preparatlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti. Tajriba hayvonlarining klinik, akusher-ginekologik dispanserlash natijalari, qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari, ratsion tarkibi va to'yimliliklari tahlili hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlarda klinik, morfologik, biokimyoviy, refraktometrik, mikroskopik, patologoanatomik, akusher-ginekologik, to'g'ri ichak orqali va ultratovush (UTT) tekshirish va oziqa namunalari zootexnikaviy tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitidagi qoramolchilik fermer xo'jaliklarida mahsuldor sigirlar alimantar bepushtliklarining uchrash darajasi "Saparov O'mirbek" fermer xo'jaligida - 42,9%, "Amir oq chashma" da - 41,7% va Nukus tumani "Qoniratbay Mexri" fermer xo'jaligida 31,6% ni tashkil etishi aniqlangan;

sigirlarning alimantar bepushtliklarida ratsionning me'yorlashtirilmaganligi, hayvonlarni qand bilan ta'minlanishining 61,6% ga, karotinni - 22,57%, kalsiyni - 9,9%, fosforni - 35,88%ga kamligi asosiy sabablar ekanligi aniqlangan;

sigirlarning alimantar bepushtliklarini ultratovush tekshiruv (UTT) va "Ekspress-test to'plami" yordamida tekshirish, qon zardobidagi follikulastimullovchi gormon (0,67 ng/ml), lyuteinlovchi gormon (0,65 ng/ml) va progesteron gormoni (2,1 nmol/l) tekshirishga asoslangan zamonaviy ertachi aniqlash usullari ishlab chiqilgan;

sigirlarda alimantar bepushtliklarni oldini olishda energetik-protein jihatdan me'yorlashtirilgan "Innutra" omuxta yemi va "Sammiks EKO" premiksini qo'llash hamda "Fergalin" preparatidan bir marta muskul orasiga 2 ml in'eksiya qilishga asoslangan guruhli profilaktika usullari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Qoraqallog'iston Respublikasining chorvachilik fermer xo'jaliklariga qarashli sigirlarda alimantar bepushtliklarning uchrash darajasi, kelib chiqish sabablari va kechish turlari aniqlangan;

sigirlarda alimantar bepushtliklar shilliq pardalarning oqarishi, ishtahaning o'zgarishi (lizuxa), nafas olish va yurak urishi sonining tezlashishi, katta qorin devori harakati sonining kamayishi, bo'yin sohasi va ko'z atrofida junlarning pigmentsizlanishi, teri qoplamasi yaltiroqligining pasayishi, servis davrining uzayishi, kuyga kelgan sigirlarda jinsiy reflekslarning sust namoyon bo'lishi kabi belgilar bilan kechishi aniqlangan;

sigirlarda alimantar bepusthtliklarni profilaktika qilish uchun "Innutra" omuxta yemini qo'llash bilan ratsionni takomillashtirish, bir boshga bir sutkada 150 g "Sammiks EKO" premiksini berish va "Fergalin" preparatidan 2 ml muskul orasiga inyeksiya qilishga asoslangan profilaktik majmua ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tekshirishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, klinik, ginekologik hamda laborator uslublardan foydalanish hamda birlamchi ma'lumotlarga ishlov berish, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, shuningdek, laboratoriya va dala tajribalarining dalolatnomalarga asoslanganligi, olingan natijalarning mutaxassislar tomonidan tasdiqlab baholanganligi va ilmiy tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotlarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mahsuldor sigirlarda alimantar bepusthtliklarning asosiy sabablari ratsion to'yimiligidan me'yoriy ko'rsatkichlardan pastligi, oziqalar tarkibidagi oqsillar, uglevodlar, vitaminlar, makro- va mikroelementlarning sigirlar organizmining ehtiyojlarini to'liq qondirmasligi, hayvonlar uchun matsion va quyosh nurlarining yetishmasligi ekanligi, sigirlarda bepusthtliklarning kechish xususiyatlari, bepustht sigirlarning qonidagi eritrotsitlar soni, gemoglobin konsentratsiyasi, umumiy oqsil, glyukoza, ishqoriy zahira, kalsiy, fosfor miqdorlarining kamayishi bilan tavsiflanishi aniqlangan va xulosa qilingan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sigirlarda alimantar bepusthtliklarning ertachi diagnostika qilish va guruhli profilaktik davolashning samarali usullari ishlab chiqilganligi, tadqiqotlar natijasida yuqori mahsuldor sigirlarda alimantar bepusthtliklarning oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog'iston Respublikasining fermer xo'jaliklari sharoitida parvarishlanayotgan mahsuldor sigirlarda alimantar bepusthtliklarni ertachi aniqlash va guruh usulida oldini olish bo'yicha ishlab chiqilgan natijalar asosida:

"Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida sigirlarda alimantar bepusthtliklarning diagnostikasi va profilaktikasi bo'yicha tavsiyalar" nomli tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 17 noyabrda qabul qilingan 18-son bayonnomasi). Natijada sigirlarda alimantar bepusthtliklarning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish asosida zamonaviy tekshirish usullarini qo'llash orqali ertachi diagnostika va profilaktika qilishga erishilgan;

sigirlarda alimantar bepusthtliklarni ertachi diagnostika qilish maqsadida ultratovush tekshiruvi (UTT), "Ekspress-test to'plami" yordamida tekshirish, qon zardobidagi follikulastimullovchi gormon, lyuteinlovchi gormon va progesteron miqdorini tekshirishga asoslangan zamonaviy ertachi aniqlash usullari ishlab chiqilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 21 noyabrda qabul qilingan 33/03-12-1385-son ma'lumotnomasi). Bunda

sigirlarni urug'lantirishning bir oyligidan boshlab bepushtliklarni ertachi aniqlash imkoniyati yaratilgan;

sigirlarda alimantar bepushtliklarni profilaktika qilish uchun "Innutra" omuxta yemini qo'llash bilan ratsionni takomillashtirish, bir boshga bir sutkada 150 g "Sammiks EKO" premiksini berish va "Fergalin" preparatidan 2 ml muskul orasiga inyeksiya qilishga asoslangan profilaktik majmua Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus tumanidagi "Qoniratbay-mexri" fermer xo'jaligi, Ellikqa'la tumani "Amir oq chashma" fermer xo'jaligi va Beruniy tumanidagi "Saparov O'mirbek" fermer xo'jaliklariga joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 21 noyabrdagi 33/03-12-1385-son ma'lumotnomasi). Natijada sigirlarning alimantar bepushtliklarini oldini olishda yuqori samaradorlikka erishilib, servis davrini o'rtacha 20 kunga qisqartirish va otalanish darajasini 40 foizga oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Tadqiqotning natijalari jami 4 ta, shu jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, ularning 2 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jumallarda hamda 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plamlarida, 2 ta xalqaro konferensiyalarida nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 120 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida o'tkazilgan tadqiqotlar dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmetlari, tadqiqotning ob'ekti, tadqiqotning ilmiy yangiliklari, tadqiqotning uslublari, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobining «Sigirlarda bepushtliklarning tarqalishi, iqtisodiy zarari va sabablari» deb nomlangan qismida dunyoning turli mamlakatlarida va mamlakatimizni turli hududlarida sigirlarda bepushtliklarning tarqalishi sabablari va iqtisodiy zararini o'rganish uchun olimlar tomonidan tadqiqotlar o'tkazilganligi keltirilgan. «Sigirlarda alimantar bepushtliklarning etiologiyasi, patogenezi va diagnostikasi» deb nomlangan ikkinchi qismida dunyoning turli hududlaridagi va respublikamiz ilmiy tadqiqochilari tomonidan bajarilgan ilmiy ishlarida kasalliklarni kelib chiqish sabablari, patogenezi

va diagnostikasiga oid ma'lumotlar tadqiqotlarda keng yoritilgan. «Sigirlarda alimantar bepushtliklarni davolash va oldini olish chora-tadbirlari» deb nomlangan to'rtinchi qismida alimantar bepushtliklarni davolash va oldini olish usullari haqidagi adabiyot ma'lumotlari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «Tadqiqotlar joyi, ob'ekti va uslublari» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar joyi, ob'ekti va tadqiqotlarni bajarish uslublari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Ilmiy tadqiqotlarning eksperimental qismi 2023-2025 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani "Saparov O'mirbek" (1-xo'jalik), Ellikqal'a tumani "Amir oq chashma" (2-xo'jalik) hamda Nukus tumani "Qoniratbay mexri" (3-xo'jalik) fermer xo'jaliklarida bajarildi.

Dispanser tadqiqotlar o'tkazish uchun xo'jaliklardagi Golshtin-friz va Monbelyar zotli 4-5 yoshli sigirlardan «o'xshash juftliklar» tamoyili asosida etalon guruh sifatida 10 boshdan sigirlar ajratilib, ularda har 20 kunda bir marta klinik-fiziologik status, akusher-ginekologik va qonning ayrim morfofiokimyoviy ko'rsatkichlari bo'yicha tekshirishlar olib borildi.

Chetdan keltirilgan sigirlarda alimantar bepushtliklarni guruhli profilaktikasi uslub va vositalarini tanlash, ularning sigirlar organizmiga ta'sirini o'rganish va guruhli profilaktik tadbirlarni o'tkazishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash maqsadida 3 bosqichda ilmiy va ilmiy-xo'jalik tajribalari o'tkazildi.

Dissertatsiyaning «Sigirlarda akusher-ginekologik dispanserlash natijalari» deb nomlangan uchinchi bobida Qoraqalpog'iston Respublikasi "Qoniratbay mexri" qoramolchilik fermer xo'jaliklariga qarashli sigirlarda akusher-ginekologik dispanserlash asosida bepushtliklarning sabablari va kechish xususiyatlarini o'rganish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Qoramolchilik fermer xo'jaliklaridagi sigirlarning oziqa ratsioni tahliliga ko'ra ratsion tarkibining 6,7 foizini beda pichani, 5,1 foizini paxta shulxasi, 6,7 foizini turli o'tlar pichani, 67,6 foizini makka silosi, 1,68 foizini arpa yormasi, 1,68 foizini makka yormasi, 6,7 foizini bug'doy yormasi va 3,37 foizini paxta kunjarasi tashkil etgan. Ratsionning umumiy to'yimliliigi 11,07 oziqa birligini tashkil etib, oziqlantirish me'yorlariga nisbatan hazmlanuvchi proteinni 57 g, qandni 875 g, kalsiyni 11,35 g, fosforni - 28,4 g, karotinni - 60 mg ga yetishmasligi aniqlangan.

Sog'in sigirlar organizmi ehtiyojlarining qondirilishi ratsiondagi hazmlanuvchi protein bo'yicha - 95,8 foiz, qand - 28,6 foiz, karotin - 90,1 foiz, kalsiy - 88,3 foiz, fosfor - 58,8 foiz va xom kletchatkaga nisbatan 82,1 foizni tashkil etdi. Ratsionning uglevodli qismi qandning va kletchatkaning tanqisligi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, ratsionning oqsil va energiya bo'yicha tarkibiy qismlarida nomutanosiblik mavjudligi aniqlanib, qand-oqsil nisbati me'yoriy (me'yor - 0,8:1) ko'rsatkichiga nisbatan 0,27:1 ekani ma'lum bo'ldi.

Sog'in sigirlar ratsionidagi karotinning miqdori me'yordagi 610 mg o'miga 550 mg ni tashkil etdi.

Ratsionning mineral tarkibini tahlil qilish natijalariga ko'ra, undagi kalsiyning fiziologik me'yorlarga nisbatan 11,35 g, fosforni 28,4 grammga kamligi ma'lum bo'ldi. Sog'in sigirlar organizmining kalsiy bilan ta'minlanishi 88,3 foiz, fosfor bilan ta'minlanishi esa 58,8 foizni, fosforning kalsiyga nisbati me'yordagi 1:2 o'miga 0,47:2 ni tashkil etdi.

Ratsionning mineral tarkibini tahlil qilish natijalariga ko'ra, undagi kalsiyning fiziologik me'yorlarga nisbatan 11,35 g, fosforni 28,4 grammga kamligi ma'lum bo'ldi. Sog'in sigirlar organizmining kalsiy bilan ta'minlanishi 88,3 foiz, fosfor bilan ta'minlanishi esa 58,8 foizni, fosforning kalsiyga nisbati me'yordagi 1:2 o'rniga 0,47:2 ni tashkil etdi.

"Saparov O'mirbek" fermer xo'jalikdagi bepusht sigirda tana harorati dastlab $38,2 \pm 0,2^{\circ}\text{C}$, tekshirishlarning oxirida esa $38,6 \pm 0,5$ (me'yorda - $37,5-39,5^{\circ}\text{C}$) ni, 1 daqiqadagi yurak urishi soni tekshirishlarning boshida o'rtacha $75,6 \pm 0,8$ martani, tekshirishlarning oxirida esa $76,4 \pm 1,2$ martani (me'yorda 50-80 marta), 1 daqiqadagi nafas olish chastotasi daslab $25,8 \pm 0,6$ martani, tekshirishlarning oxiriga kelib o'rtacha $27,5 \pm 0,9$ martani (me'yorda 1 daqiqada 12-25 marta), katta qorin devorining 5 daqiqadagi harakatlar soni tekshirishlar oxirida o'rtacha $4,6 \pm 0,6$ martani (me'yorda - 5-12 marta) tashkil etdi.

Bu ma'lumotlar fiziologik ko'rsatkichlarning tekshirishlar boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan tadqiqotlarning oxiriga kelib yomonlashib borishidan dalolat beradi.

"Amir oq chashma" fermer xo'jalikdagi sigirlarning tana harorati tekshirishlar davomida fiziologik me'yorlar chegarasida bo'lsada, tekshirishlarning boshida yurak urishi bir daqiqada o'rtacha $65,9 \pm 1,5$ marta, tekshirishlarning oxiriga kelib $85,6 \pm 1,7$ martani, nafas olish soni shunga mos ravishda $23,1 \pm 1,3$ marta, tekshirishlarni oxiriga kelib $31,4 \pm 1,6$ martani tashkil etdi.

Tekshirishlarning boshida katta qorinning 5 daqiqadagi harakatlar soni o'rtacha $6,7 \pm 0,4$ martani tashkil etgan bo'lsa, tekshirishlarning oxiriga kelib bu ko'rsatkich $4,1 \pm 0,6$ martagacha kamayishi aniqlandi.

Fermer xo'jaligidagi sog'in sigirlarda oshqozon oldi bo'limlarining gipotoniyasini kuzatilishining sabablariga ularning yil davomida bir joyda saqlanishi, ratsion strukturasiining sigirlar ehtiyojini to'la qondirmasligi hamda faol matsionning yo'qligi bilan izohlash mumkin.

"Qo'ngirabay-Mexri" qoramolchilik fermer xo'jalikdagi sigirlarni tekshirishlar davomida tana harorati, yurak urishi va nafas chastotasi fiziologik me'yorlar chegarasida bo'lib, yurak urishi bir daqiqada o'rtacha $81,2 \pm 1,2$ va nafas olish soni esa $14 \pm 0,6$ martani tashkil etdi.


Oshqozon oldi bo'limlarining o'rtacha 5 daqiqadagi qisqarishlari soni $4,8 \pm 0,3$ martani (me'yor 5 daqiqada 8-12 marta) tashkil etdi. Sigirlarda oshqozon oldi bo'limlari gipotoniyasining paydo bo'lishiga ularning yil davomida bir joyda bog'lab qo'yish, uzoq vaqt mobaynida bir xil silos-konsentrat tipida rasion bilan oziqlantirilishi, shuningdek kobalt, mis, manganets, rux va yod kabi mikroelementlarning yetishmasligi sabab bo'ladi. Bu omillar katta qorin bo'limidagi mikrofloralar faoliyatining susayishiga olib keladi.

Kuyga kelgan sigirlarda jinsiy reflekslarning sust namoyon bo'lishi kuzatildi. Bu ko'rsatkichlar hayvonlar organizmida bir vaqtning o'zida bir nechta mineral moddalar hamda vitaminlar almashinuvining buzilishi va natijada alimentar xarakterdagi bepushtliklar kuzatilishidan dalolat beradi.

Tadqiqotlar davomida sigirlarning bo'g'ozligi va jinsiy a'zolari holatini aniqlash maqsadida to'g'ri ichak orqali paypaslash usuli yordamida tekshirilganda,

ko'pchilik hayvonlarda bachadonning atoniyasi, tuxumdonlarning biroz kichrayganligi va qotganligi hamda follikulalarning to'liq yetilmaganligi, 30-35% sigirlar tuxumdonlarida so'rilmay qolgan sariq tana, bachadonda uning subinvolyusiyasiga xos belgilar (kuchiz qisqarishi, kattalashganligi, suyuqliklarning flyuktuatsiyasi) aniqlandi.

Tekshirishlar boshida sog'in sigirlar qonidagi eritrotsitlar soni 1-xo'jalikda o'rtacha $5,26 \pm 1,16$ mln/mkl, 2-xo'jalikda, $5,36 \pm 1,20$ mln/mkl ni, 3- xo'jalikda, $5,31 \pm 1,14$ mln/mkl ni (me'yor - $5,0-7,5$ mln/mkl) tashkil etgan bo'lsa, tekshirishlarning oxiriga kelib, bu ko'rsatkichning shunga mos ravishda o'rtacha $4,84 \pm 1,45$ mln/mkl, $4,62 \pm 1,32$ mln/mkl va $4,60 \pm 1,20$ gacha kamayishi qayd etildi. Gemaglobinning konsentratsiyasi tekshirishlarning oxiriga kelib 1- xo'jalikda $91,2 \pm 1,72$ g/l dan $78,6 \pm 2,41$ g/l gacha, 2- xo'jalikda $88,4 \pm 2,22$ g/l dan $82,2 \pm 1,17$ g/l gacha, 3- xo'jalikda $90,0 \pm 2,10$ g/l dan $80,5 \pm 2,00$ kamayishi (me'yor 99-129 g/l) kuzatildi (1-rasm).




1-rasm. Sigirlarning gematologik ko'rsatkichlari

Dispanser tekshirishlar boshida sigirlar qonidagi glyukozaning miqdori (1-xo'jalikda) o'rtacha (meyyor $2,22-2,33$ mmol/l) $2,17 \pm 0,06$ mmol/l ni (2-xo'jalikda) $2,24 \pm 0,05$ mmol/l ni va (3-xo'jalikda) $2,20 \pm 0,05$ mmol/l ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich tadqiqotlar davomida kamayib borib, tekshirishlar oxirida shunga mos ravishda yani tekshirishlarning 60-kunida o'rtacha $1,95 \pm 0,05$ mmol/l, $1,62 \pm 0,05$ mmol/l va $1,60 \pm 0,05$ mmol/l tashkil etdi. Tadqiqotlar jarayonida qondagi glyukoza miqdorining asta-sekin pasayib borishi, laktatsiya davrida sigirlarning energiyaga bo'lgan talabi to'liq qondirilmagani bilan bog'liq deb izohlashimiz mumkin.

Dissertatsiyaning «Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida sigirlarda alimantar bepushtliklarni oldini olish chora-tadbirlari» deb nomlangan to'rtinchi

bobida sigirlarda alimenter bepushtliklarning oldini olish bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalari keltirilgan.

Birinci bosqich tajribalarimiz Nukus tumanidagi "Qoniratbay -Mexri" fermer xo'jaligi sharoitida bajarildi. Mahsuldor sigirlarda alimenter bepushtliklarni guruhli profilaktika qilish vositalarini tanlash, ularning alohida-alohida qo'llashning bepusht sigirlar organizmiga ta'sirini o'rganish maqsadida klinik va akusher-ginekologik tekshirishlar o'tkazilib, bunda jinsiy a'zolarning tug'ishdan keyingi tiklanishi, bachadonning holati, otalanish darajasi aniqlandi (2 - rasm).



2-rasm. Sigirlarning gematologik ko'rsatkichlari.

Tajribalar uchun tuqqaniga 40 kun bo'lgan sigirlardan 20 bosh sigir "o'xshash juftliklar" tamoyili asosida tanlanib, har birida 5 boshdan sigir bo'lgan to'rtta guruh tashkil qilindi. Birinchi, ikkinchi va uchinchi guruhlar tajriba guruhlar sifatida, to'rtinchi guruh esa nazorat guruhi sifatida belgilandi.

Birinchi tajriba guruhidagi sigirlarga, ularning xo'jalik ratsioniga qo'shimcha sifatida, bir kunda bir boshga 100 mg kaliy yodid omixta yemga aralashtirilgan holda kuniga bir marta 60 kun davomida berildi. Tetramag preparatidan 10 ml muskul orasiga 10 kunda bir marta ineksiya qilindi. Ikkinchi tajriba guruhidagi sigirlarga ularning xo'jalik ratsioniga qo'shimcha sifatida bir kunda bir boshga 150 mg rux sulfat omixta yemga aralashtirilgan holda kuniga bir marta, 60 kun davomida, Tetramag 10 ml muskul orasiga, 10 kunda bir marta, demak, tajribalar davomida sigirlar 60 kun rux sulfat preparatini qabul qildi.

Uchunchi tajriba guruhdagi sigirlarga kaliy yodid 1 boshga 100 mg, rux sulfat 150 mg omixta yemga aralashtirilgan holda kuniga bir marta 60 kun davomida berildi, Tetramag 10 ml muskul orasiga, 10 kunda bir marta, jami 3 marta in'eksiya qilindi. Nazorat guruhdagi sigirlar faqat xo'jalik ratsionida oziqlantirildi.

Tajriba boshida barcha tajriba va nazorat guruhlaridagi sigirlarda klinik-fiziologik ko'rsatkichlar semizlik darajasining o'rtadan pastligi, teri qoplamasining

yaltiroqligi va elastikligining pasayishi, ishtahaning o'zgarishi, shilliq pardalarning oqarishi, ayrim sigirlarda oxirgi dum umurtqalarining so'rilishi, kesuvchi tishlar va shox o'simtlarining qimirlashi, umurtqa pog'onasining lordoz shaklidagi deformatsiyasi hamda dumg'aza atrofining cho'kishi bilan xarakterlandi. Shu bilan birga, ularda alimantar xarakterdagi bepushlikka xos klinik belgilar kuzatildi.

Tajriba oxirida esa nazorat guruhidagi sigirlarda birinchi, ikkinchi va uchinchi tajriba guruhlariga nisbatan qo'shimcha belgilarga e'tibor qaratildi: tashqi ta'sirlarga befarqlik, ishtahaning pasayishi va o'zgarishi, kavsh qaytarishning sekinlashishi, oshqozon oldi bo'limlari qisqarishlarining kamayishi, ko'z va lablar atrofida hamda bo'yin terisida teri qoplamasining siyraklashishi va pigmentsizlanishi, oxirgi dum umurtqalarining turli darajada so'rilishi, shuningdek, teri qoplamasi, shox va tuyoqlarning yaltiroqligining pasayishi. Bu belgilar minerallar va vitaminlar almashinuvi buzilishlariga xos hisoblanadi.

Birinchi tajriba guruhidagi sigirlar fiziologik ko'rsatkichlarining tahliliga ko'ra, tajribalar boshlanishida ularning tana harorati o'rtacha $38,3 \pm 0,05$ °C bo'lgan bo'lsa, tajriba yakuniga kelib ushbu ko'rsatkich $38,5 \pm 0,04$ °C gacha ko'tarildi. Yurak urishlarining bir daqiqalik chastotasi esa tajriba boshida $75,6 \pm 2,4$ marta bo'lgan, jarayon oxirida esa $65,2 \pm 2,4$ martagacha pasaygani kuzatildi. Shuningdek, nafas olish soni ham tajriba davomida $27,8 \pm 2,3$ martadan $21,5 \pm 2,5$ martagacha kamaydi. Katta qorin devorining 5 daqiqadagi harakatlarida esa aksincha, o'sish qayd etilib, dastlabki $5,5 \pm 0,4$ martadan tajribalar oxiriga kelib $8,3 \pm 0,7$ martagacha yetdi (me'yoriy ko'rsatkich: 5 daqiqada 8–12 marta)

Ikkinchi tajriba guruhida kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, tajribalar boshlanishida sigirlarning tana harorati o'rtacha $38,4 \pm 0,04$ °C bo'lgan, tajriba yakunida esa bu ko'rsatkich $38,6 \pm 0,04$ °C gacha ko'tarildi. Bir daqiqadagi yurak urishlarining o'rtacha chastotasi tajriba boshida $74,6 \pm 2,5$ marta bo'lgan bo'lsa, jarayon oxiriga kelib $65,2 \pm 2,4$ martagacha pasaydi. Nafas olish soni ham bir daqiqada $27,8 \pm 2,3$ martadan $21,5 \pm 2,5$ martagacha kamaygani aniqlandi. Shu bilan birga, katta qorin devorining 5 daqiqadagi harakatlari tajriba davomida $5,5 \pm 0,6$ martadan $10,4 \pm 0,7$ martagacha oshgani qayd etildi.

Uchinchi tajriba guruhidagi sigirlarda tajribalarning boshida tana harorati o'rtacha $38,2 \pm 0,03$ °C ni tashkil etgan bo'lsa, tajribalarning oxiriga kelib o'rtacha $38,4 \pm 0,03$ °C ga teng bo'ldi. Bir daqiqadagi yurak urish soni o'rtacha $74,8 \pm 2,1$ martani tashkil etgan bo'lsa, tajribalarning oxiriga kelib o'rtacha $66,2 \pm 2,4$ martagacha, 1 daqiqadagi nafas chastotasini $27,3 \pm 2,3$ martadan $23,6 \pm 2,4$ martagacha siyraklashishi va katta qorin devorining 5 daqiqadagi harakatini $5,6 \pm 0,7$ martadan $10,6 \pm 0,6$ martagacha ko'payishi qayd etildi.

Nazorat guruhidagi sigirlarda esa klinik ko'rsatkichlarni tajribalarning oxirigacha yomonlashib borishi qayd etildi. Bu guruhdagi hayvonlarda tajribalar oxiriga kelib, bir daqiqadagi yurak urishi o'rtacha $77,6 \pm 3,1$ nafas chastotasini shunga mos ravishda $27,5 \pm 3,1$ martagacha ortishi, 5 daqiqadagi katta qorin devori harakatining o'rtacha $4,6 \pm 0,6$ martagacha kamayishi va shuningdek, mikroelementozlar uchun xarakterli bo'lgan klinik belgilarning kuzatilishi qayd etildi.

Tajriba boshlanishida barcha guruhlariga mansub sog'in sigirlarning qonidagi asosiy morfobiokimyoviy ko'rsatkichlar bir-biridan sezilarli farq qilmay, o'xshash

darajada bo'lgan. Tajriba davomida nazorat guruhida ushbu ko'rsatkichlar asta-sekin yomonlashib borganligi aniqlandi. Tajriba guruhlarida esa aksincha, klinik va biokimyoviy ko'rsatkichlar fiziologik me'yorlar doirasida ijobiy tomonga o'zgarib, ularning yaxshilanishi qayd etildi.

Birinchi tajriba guruhidagi sigirlarda gematologik ko'rsatkichlar dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan yaxshilanib bordi, ya'ni qondagi eritrotsitlar sonining o'rtacha $4,9 \pm 1,3$ dan $5,26 \pm 1,1$ mln/mkl gacha, gemaglobinni - $89,4 \pm 1,16$ dan $101,6 \pm 2,16$ g/l gacha, glyukozani - $1,78 \pm 0,09$ dan $2,23 \pm 0,08$ mmol/l gacha, umumiy oqsilni - $69,2 \pm 1,33$ dan $72,6 \pm 0,88$ g/l gacha, ishqoriy zahirani - $46,4 \pm 1,13$ dan $47,6 \pm 1,14$ hajm % CO_2 gacha ko'payishi qayd etildi. Qonning ayrim morfobiokimyoviy ko'rsatkichlarining fiziologik me'yorlar chegarasida yaxshilanib borishini qo'llanilgan preparatlarning sigirlar organizmida modda almashinuvlari holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan izohlash mumkin.

Ikkinchi guruhdagi sigirlarda qonining ko'rsatkichlari dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan ijobiy tomonga o'zgarib bordi, ya'ni qondagi eritrotsitlar sonining o'rtacha $4,9 \pm 1,2$ dan $5,6 \pm 1,2$ mln/mkl gacha, gemaglobinni - $88,6 \pm 1,1$ dan $107,6 \pm 1,22$ g/l gacha, glyukozani - $1,76 \pm 0,07$ dan $2,56 \pm 0,06$ mmol/l gacha, umumiy oqsilni - $68,2 \pm 1,22$ g/l dan $75,2 \pm 0,84$ g/l gacha, ishqoriy zahirani - $46,2 \pm 1,12$ dan $48,6 \pm 1,14$ hajm % CO_2 gacha ko'payishi qayd etildi.

Qonning ko'rsatkichlari uchinchi guruhdagi sigirlarda dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan ijobiy tomonga o'zgarib bordi, ya'ni qondagi eritrotsitlar sonining o'rtacha $4,8 \pm 1,2$ dan $5,8 \pm 1,2$ mln/mkl gacha, gemaglobinni - $87,5 \pm 1,12$ dan $109,4 \pm 2,10$ g/l gacha, glyukozani konsentratsiyasini - $1,71 \pm 0,06$ dan $2,66 \pm 0,04$ mmol/l gacha, umumiy oqsil miqdorini - $67,2 \pm 1,21$ dan $77,2 \pm 0,82$ g/l gacha, ishqoriy zahirani - $46,8 \pm 1,12$ dan $49,2 \pm 1,1$ hajm % CO_2 gacha ko'payishi qayd etildi. Qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlarining fiziologik me'yorlar chegarasida yaxshilanib borishini qo'llanilgan preparatlarning sigirlarda modda almashinuvlari holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan izohlaymiz.

Qondagi eritrotsitlar sonini nazorat guruhidagi sog'in sigirlarda o'rtacha - $0,52$ mln/mkl, gemaglobinni - $3,3$ g/l, glyukozani - $0,17$ mmol/l, umumiy oqsilni - $2,5$ g/l, ishqoriy zahirani - $1,6$ hajm % CO_2 ga kamayishi qayd etildi.

Mazkur guruhdagi sog'in sigirlarda qonning morfo-biokimyoviy ko'rsatkichlarida kuzatilgan salbiy o'zgarishlarni laktatsiya jarayonida hayvon organizmida vitamin va mineral moddalar tanqisligining yuzaga kelishi bilan izohlash mumkin.

Tajriba natijalariga ko'ra, birinchi guruhdagi sigirlarda tuqqandan keyin 60-kunga kelib, 5 bosh sigirdan 3 tasi urug'langanligi, ikkinchi tajriba guruhidagi 5 bosh sigirlarning 4 boshi urug'langanligi aniqlanib, bu ko'rsatkich 80 % ni tashkil etdi.

Tajribalar oxiriga kelib nazorat guruhidagi 5 bosh sigirlarning 2 boshi urug'langanligi (40%) aniqlandi. Sog'in sigirlarning yil davomida bir joyda ushlab turilishi va yetarli darajada yayratilmasligi ularning organizmida vitamin hamda mineral moddalarning almashinuv jarayonlari yanada izdan chiqishiga olib kelib, natijada alimantar bepustliklarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Sog'in sigirlarda vitamin va mineral moddalar almashinuvi buzilishlari oqibatidagi bepustliklarni oldini olish maqsadida sigirlar ratsioniga qo'shimcha ravishda bir kunda bir boshga

Rux sulfat 150 mg omixta yemga aralashtirilgan holda kuniga bir marta, 60 kun davomida berilishi, Tetramag preparatidan 10 ml muskul orasiga, 10 kunda bir marta. Jami 3 marta in'eksiya qilinishi ularda qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari hamda klinik-fiziologik statusni me'yorlar chegarasida yaxshilanishini, sigirlarni kuyga kelishi va otalanish foizining 40% ga o'tishini ta'minlaydi.

Ikkinchi bosqich tajribalar uchun tajriba o'tkazish maqsadida sog'indan chiqarilgan jami 30 bosh sigir tanlab olinib, har birida 10 boshdan uchta guruh shakllantirildi. Birinchi tajriba guruhidagi sigirlarga ratsionga qo'shimcha ravishda bir boshiga 100 mg kaliy yodid hamda 150 mg rux sulfat omixta yemga aralashtirilgan holda kuniga bir marta 60 kun davomida berildi. Tetramag kompleks vitaminli preparatidan 10 ml muskul orasiga, 10 kunda bir marta, jami 3 marta in'eksiya qilindi.

Ikkinchi tajriba guruhidagi sog'indan chiqarilgan sigirlarga Sammiks EKO primeksidan bir boshga bir kunda 150 g, 60 kun davomida umumiy oziqaga aralashtirilgan holda berildi.

Uchinchi tajriba guruhidagi sigirlar ratsioniga Sammiks EKO primeksi bir boshga 150 g, 60 kun davomida umumiy oziqaga aralashtirilgan holda berildi, Fergalin preparatidan 2 ml tajribaning 20- kunida bir marta muskul orasiga in'eksiya qilindi.

Nazorat guruhidagi sigirlar faqatgina xo'jalik ratsioni asosida oziqlantirildi.

Birinchi tajriba guruhidagi sigirlarda dastlab tana harorati o'rtacha $38,1 \pm 0,04^{\circ}\text{C}$ bo'lgan bo'lsa, tajribalar davomida $38,8 \pm 0,04^{\circ}\text{C}$ ga oshdi. Bir daqiqadagi yurak urishi soni o'rtacha $75,7 \pm 2,2$ martani tashkil etgan bo'lsa, tajribalarning oxiriga kelib $69,6 \pm 2,4$ martagacha, 1 daqiqadagi nafas chastotasini $27,7 \pm 2,3$ martadan $25,3 \pm 2,1$ martagacha pasayishi va katta qorin devorining 5 daqiqadagi harakatini $5,6 \pm 0,4$ martadan $8,2 \pm 0,7$ martagacha (me'yor 5 daqiqada 8-12 marta) ko'payishi qayd etildi.

